

MUMTOZ ADABIYOTDA SAB’AI SAYYOR TURKUMIDAGI DOSTONLAR

Panjiyeva Zarinabonu Husniddin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mumtoz adabiyotda Bahrom obrazi, personajlar tahlili, hikoyatlarning qiyosiy talqini.*

Kalit so‘zlar: *Bahrom, Dilorom, yetti hikoyat, hikoyatlarning qiyosiy jihatlari.*

Mumtoz o‘zbek adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri bo‘lgan Alisher Navoiy ijodi Sharq badiiy tafakkurining eng murakkab va mukammal tizimlaridan birini tashkil etadi. Uning ijodi nafaqat o‘z davrining adabiy-estetik qarashlarini aks ettirdi, balki butun bir madaniy-falsafiy maktabning shakllanishiga asos bo‘ldi. Ayniqsa, Navoiy tomonidan yaratilgan “Xamsa” turkumi turkiy adabiyot tarixida yangi bosqichni boshlab bergan yirik adabiy hodisa sifatida baholanadi.

Sharq adabiyotida “Xamsa” yaratish an’anasi murakkab tarixiy-adabiy jarayon bo‘lib, ushbu “xamsanavislik” shajarasining asoschisi Nizomiy Ganjaviydir. Bu silsila keyinchalik Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa ko‘plab ijodkorlar tomonidan davom ettirilgan. Har bir xamsanavis o‘zidan oldingi an’anani takrorlash bilan cheklanmagan, balki uni yangi g‘oyaviy-badiiy va estetik mazmun bilan boyitgan. Alisher Navoiy ham ushbu jarayonga ijodiy yondashib, uni turkiy til imkoniyatlari asosida qayta shakllantirgan.

Adabiyotshunoslik atamasi sifatida “xamsa” beshta dostonni o‘z ichiga oladigan bir butun yaxlit asar ma’nosini ifoda etadi. Jahon adabiyotida besh qismdan iborat turkum asar yaratish an’anasining ilk namunasi qadimgi Hind eposi bo‘lgan “Panchatantra” asaridir. Forsiyzabon va turkiy xalqlar orasida “Kalila va Dimna” nomi bilan shuhrat qozongan ushbu asarda ham Barzuya hakim tilidan bayon qilinadigan asosiy syujetlar miqdori beshta bo‘lib, ular o‘z navbatida ko‘plab boshqa syujetlarni qamrab olgan. Biroq mazkur asarning xamsanavislik an’anasiga munosabati shu bilan chegaralanadi.⁴⁶

Sharq xalqlari va mumtoz adabiyotimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitni yoritgan afsona hamda rivoyatlarning shox tomiri qadim tarixga borib taqaladi. Bu tur hikoyatlarda jamiyatdagi hokim tabaqa vakillarning kirdikorlari, mehnatkash va sodda xalqning azob-uqubatlari hamda xalq fig‘oniga befarq bo‘lmagan qahramonlarning adolat uchun ko‘rsatgan matonatli harakatlari aks etgan. Shu jihatdan olib qaraganda ham xalq og‘zaki ijodida mana

⁴⁶ S. Tohirov. Temuriylar davrida xamsanavislik. Toshkent: Tamaddun, 2021, 8-b.

shu mavzuga doir ko‘p durdona asarlar yaratildi va ushbu ijod namunalarida davlatni har taraflama yetuk, adolatli, xalq uchun qayg‘uradigan ideal shaxs boshqarishi lozimligi uqtirildi.

Mana shunday obrazlardan biri Bahrom Go‘r bo‘lsa, bu mavzuni yozma adabiyotda ilk bor qo‘llagan ijodkor Abulqosim Firdavsiydir. U o‘zining “Shohnoma” asarida tarixiy Bahrom Go‘r obrazini ilk bor badiiy-estetik jihatdan gavdalantirdi va ushbu syujetni yozma adabiyotga olib kirdi. U ushbu asarida Bahromning shohlik hayoti va unga aloqador afsonalar haqida hikoya qildi. Firdavsiy Bahromni adolatli shoh, mohir sarkarda, vatanparvar bahodir kabi ulug‘vor sifatlar orqali tasvirlash bilan bir qatorda, uning aysh-ishrat va ko‘ngilxushlikka moyilligini ta’kidlab, xudbin va qahr-g‘azabi qattiq kishi sifatida tasvirlaydi.

Firdavsiy Bahromni bu asnoda tasvirlashi ham bejizga emas edi. Chunki, Bahrom tarixiy manbaalar va hikoyalarda ham shunday xarakter xususiyatlariga ega shaxs sifatida keltirilgan. Misol uchun, Bahromning hayotiga aloqador manbaalarni Eron shohlari tarixiga bag‘ishlangan “Siyar-u mulk il-furs”, “Tarixi Tabariy”, “Tarixi mulki ajam” asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Eron shohi Yazdigird I mamlakatni zulm bilan boshqaradi. Dushmanlaridan qo‘rqgan podshoh Bahromning tarbiyasini No‘monga topshiradi. U Bahrom uchun Havarnaq qasrini qurdiradi. No‘mon Bahromni dovyurak va shijoatli qilib tarbiyalaydi. Bahrom ov qilish, chavandozlik, harb va boshqa qator fanlarni puxta o‘zlashtiradi. Bahromning ovdagi sarguzashtlarini rassomlar Havarnaq devorlarida aks ettiradilar. Yazdigird vafotidan so‘ng undan bezor bo‘lgan xalq taxtga Xusravni o‘tqazadi. Taxt vorisi bo‘lgan Bahrom bu xabardan voqif bo‘lgach, No‘mon yordamida Eronga qo‘shin tortadi. Eron xalqi oldida Vatanni adolat bilan boshqarishga va’da berib, uni taxtga o‘tqazishlarini iltimos qiladi. Xalq ikki shart qo‘yadi. Bahrom ikki dahshatli sherni o‘ldirib, ular o‘rtasiga qo‘yilgan davlat tojini oladi, shu bilan shartni bajaradi va toj-u taxtga erishadi. Bahrom dastlab mamalakatni tartibga soladi, adolat va tadbirkorlik bilan ish olib boradi. Lekin, keyinchalik aysh-ishrat va ovga berilishi natijasida u davlat ishlarini unutib qo‘yadi. Bundan foydalangan dushmanlar mamlakatga hujum qiladilar. Bahrom turk qabilalari bilan jang qilib ularni yengadi. Vizantiya bilan bo‘lgan jangda esa, mag‘lubiyatga uchraydi. Ozarbayjon, Xorazm, Balx, Yamanga yurish qiladi. Sudanni bosib olish orzusida bo‘ladi.⁴⁷

Bahromning halok bo‘lishi haqida bir-biridan farq qiluvchi ikki xil fikr mavjud bo‘lib, biriga ko‘ra Bahrom qulonlarni ovlab yurgan payti quduqga tushib ketsa, ikkinchisiga ko‘ra Bahrom jangda yaralanib halok bo‘lgan deya talqin qilinadi.

⁴⁷ Hasanov S. Xamsa. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 6-b.

Firdavsiyning “Shohnoma”si Sharq xalqlari ma’naviy-madaniy merosining eng ulug‘ yodgorliklaridan biri sifatida nafaqat o‘z davrining adabiy-estetik tafakkurini mujassamlashtirgan, balki keyingi asrlar adabiy jarayonining rivojiga ham beqiyos ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu ulkan epopeya asrlar davomida ijodkorlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qildi, uning syujetlari, obrazlari va badiiy konsepsiyalari yangi davr adiblari tomonidan turlicha talqin etildi. Ana shunday ijodiy davomiylikning yorqin namunalaridan biri Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” dostonidir. Mazkur asar “Shohnoma”dagi Bahrom Go‘r haqidagi rivoyatlar asosida yaratilgan bo‘lsa-da, unda dastlabki manbaa mutlaqo yangi g‘oyaviy-badiiy talqin kasb etadi.

Forsiy-turkiy dostonchilik, xususan, xamsanavislikni Firdavsiy ta’siridan xoli holda tasavvur qilish mumkin emas. Zero “Xamsa” tarkibidagi uchta syujet (Xusrav-Shirin-Farhod, Shoh Bahrom, Iskandar) bevosita shu asar ta’sirida maydonga kelgan. “Shohnoma”ning mukammal nashrida “Bahrom Go‘r” dostoni yettinchi jildan o‘rin olgan. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra Bahrom “Shohnoma”dagi asosiy timsollardan bo‘lib, Firdavsiyning adolatli hukmdor haqidagi qarashlari shu obraz vositasida aks ettirilgan.⁴⁸

Ma’lumki, Firdavsiy ijodida Bahrom Go‘r, avvalo, qudrat va shijoat timsoli sifatida gavdalanadi. Shoir e’tiborini uning jang maydonlaridagi jasorati, ovchilikdagi tengsiz mahorati, hukmdorlik salobati hamda qahramonlik fazilatlari egallaydi. Shu bois “Shohnoma”da Bahromning shaxsiy kechinmalaridan ko‘ra uning epik qiyofasi, afsonaviy qudrati va qahramonlik salohiyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Asarda hukmdor obrazi ulug‘vorlik va salobat nuri bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, uning har bir harakati qahramonlik idealining ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Nizomiy esa ayni obrazga tamoman boshqacha nuqtayi nazardan yondashadi. U Bahrom shaxsiyatining tashqi qudratini emas, balki uning ichki olamini, ruhiy iztiroblarini, muhabbat va hayot haqidagi tasavvurlarini tasvirlashga intiladi. Natijada epik qahramon asta-sekin murakkab ruhiy olamga ega bo‘lgan badiiy obrazga aylanadi. Shoir uchun Bahromning qilichi emas, qalbi; uning g‘alabalari emas, ma’naviy kamoloti muhimroqdir. Shu jihatdan “Haft paykar” qahramonlik dostoni doirasidan chiqib, inson ruhiyati va hayot falsafasini tadqiq etuvchi yirik badiiy-falsafiy asarga aylanadi.

Bu holat, ayniqsa, Ozoda bilan bog‘liq voqealar talqinida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Shohnoma”da mazkur epizod Bahromning merganlik san’atini namoyish etuvchi qisqa lavha sifatida berilgan. Voqea markazida insoniy tuyg‘ular emas, hukmdorning sha’ni va mahorati turadi. Ozodaning tanqidi Bahrom g‘azabini qo‘zg‘atadi va natijada fojiali yakun yuz beradi.

⁴⁸ S. Tohirov. Temuriylar davrida xamsanavislik. Toshkent: Tamaddun, 2021, 16-b.

Biroq Firdavsiy diqqat markazini ushbu fojiaga emas, Bahromning qudrati va o‘z sha‘nini himoya qilish yo‘lidagi qat‘iyatiga qaratadi.

Nizomiy esa aynan shu kichik lavhani keng qamrovli badiiy voqeaga aylantiradi. Uning talqinida Ozoda Fitna obrazida qayta dunyoga keladi. Fitna endilikda oddiy kanizak emas, balki aql-zakovat, sabr-toqat va ma‘naviy matonat timsoliga aylanadi. Shoir uning qismati orqali insonning o‘z ustida ishlashi, mehnat va iroda tufayli komillikka erishishi mumkinligi haqidagi muhim falsafiy g‘oyani ilgari suradi. Fitnaning sarhang qo‘lida omon qolishi, yillar davomida mashaqqatli mashqlar bilan o‘z irodasini chiniqtirishi va nihoyat Bahromga haqiqatni anglatishi asarning g‘oyaviy-estetik yukini sezilarli darajada kuchaytiradi. Shu tariqa Nizomiy oddiy voqeani inson kamoloti va ma‘naviy yuksalish haqidagi ramziy hikoyaga aylantiradi.

“Haft paykar”ning kompozitsion qurilishi ham Nizomiy badiiy tafakkurining betakror mahsulidir. Shoir Bahrom hayotini yetti qasr va yetti malika bilan bog‘liq murakkab syujet tizimi orqali tasvirlaydi. Turli iqlimlardan kelgan yetti malika tomonidan hikoya qilinadigan qissalar asarning falsafiy qatlamini boyitadi. Har bir hikoya insoniyatning azaliy orzulari, muhabbat va sadoqat, adolat va zulm, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Bu hikoyalar Bahromning ruhiy kamolot bosqichlari sifatida ham ahamiyatlidir. Go‘yo qahramon har bir qasrda nafaqat yangi bir hikoyani tinglaydi, balki o‘z qalbining yangi bir qatlamini kashf etadi.

Nizomiy dostonida davlat va jamiyat masalalari ham alohida badiiy-falsafiy talqin etiladi. Bahromning aysh-u ishratga berilishi natijasida mamlakatda yuzaga kelgan tanazzul manzaralari hukmdorning mas‘uliyati masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Xalqning og‘ir ahvoli, amaldorlarning zulmi va davlat tizimidagi buzilishlar shoir tomonidan chuqur ijtimoiy mazmunda tasvirlanadi. Ayniqsa, cho‘pon va vafosiz it haqidagi ramziy voqea Bahromning o‘z xatolarini anglashiga turtki bo‘ladi. Shu tariqa qahramon nafaqat hukmdor, balki hayot saboqlarini o‘rganayotgan inson sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Demak, Nizomiy Ganjaviy “Shohnoma” syujetiga murojaat qilish orqali oddiy taqlid yo‘lidan bormaydi. Aksincha, u mavjud epik materialni chuqur ijodiy qayta ishlaydi, yangi obrazlar, yangi voqealar va yangi falsafiy mazmun bilan boyitadi. Natijada Firdavsiy yaratgan qahramonlik epopeyasi zamirida inson ruhiyati, muhabbat falsafasi, adolatli hukmdor g‘oyasi va ma‘naviy komillik masalalarini o‘zida mujassam etgan yangi badiiy olam vujudga keladi. Shunday ekan, “Haft paykar”ni “Shohnoma” an‘analarning oddiy davomi emas, balki ushbu an‘analarning yuksak darajadagi ijodiy transformatsiyasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Firdavsiydan so‘ng yozma adabiyotda Bahrom obrazi haqida Nizomiy Ganjaviy “Haft paykar” dostonini yaratdi. Nizomiy “Shohnoma” asaridagi Bahrom Go‘r bilan bog‘liq

syujetni qayta ishlab, unga qoliplovchi voqea va unga mazmunan bog‘lanmagan yetti hikoyat qo‘shdi. Firdavsiy “Shohnoma” asarini aruzning mutaqorib bahrida yozgan bo‘lsa, Nizomiy Ganjaviy “Haft paykar” asarini hafif bahrida yozadi. Shundan so‘ng barcha xamsanavislar Bahrom haqidagi dostonlarni shu vaznda yaratdilar.

Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”si Sharq mumtoz adabiyotida yuksak badiiy mezon sifatida shakllanib, keyingi ijodkorlar uchun muhim adabiy an‘ana vazifasini bajargan. Ana shu an‘anaga javoban Amir Xusrav Dehlaviy “Haft paykar” syujeti asosida “Hasht bihisht” dostonini yaratadi. Ushbu asar Nizomiy ijodidan faqat syujet jihatidan emas, balki kompozitsion qurilishi, g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy talqini bilan ham sezilarli darajada farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, doston nomidan ham seziladi. Nizomiy asarida voqealar yagona syujet asosida rivojlansa, Xusrav Dehlaviy asosan mustaqil mazmunga ega bo‘lgan sakkiz hikoyani bir asar tarkibida jamlashni ko‘zlagan.

Shu sababli u Bahrom Go‘r hayoti bilan bog‘liq ayrim tafsilotlarni qisqartiradi. Jumladan, Bahromning No‘monshoh qo‘lida tarbiyalanishi, saroy bunyod etilishi, yetti qasr va qahramonlik sahnalari batafsil yoritilmaydi. Shuningdek, xoin vazir, cho‘pon va saroy voqealari ham doston tarkibidan chiqarilgan. Muallifning asosiy e‘tibori Bahrom va Dilorom munosabatlariga qaratiladi. Nizomiydagi Fitna obrazi o‘rnida Dilorom timsoli berilib, uning taqdiri yangi talqinda tasvirlanadi.

Hikoyaning boshlanish qismi avvalgi asardagi kabi saqlanib qolgan: ov manzarasi, Bahromning mahorati, Diloromning sehrigar deb gumon qilinishi va hukmdorning g‘azabi natijasida uning sahroga tashlab yuborilishi. Ammo, voqealarning keyingi rivoji boshqacha kechadi. Dilorom halok bo‘lmaydi, aksincha, uzoq sargardonlikdan so‘ng tanholikda yashayotgan bir dehqonga duch keladi. U yerda musiqa sirlarini o‘rganib, mahoratini oshiradi va hatto ohularni ham o‘z san‘ati bilan rom eta oladigan darajaga yetadi. Keyinchalik yana Bahrom bilan uchrashadi. Shu tariqa Dilorom obrazi faol, qat‘iyatli va muhabbati yo‘lida kurashuvchi qahramon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur voqea asardagi boshqa hikoyalar qatorida sakkizinchi hikoya vazifasini bajaradi. Doston tarkibidagi qolgan hikoyalar ham asosiy syujet bilan mustahkam bog‘lanmagan bo‘lib, ular mustaqil mazmunga ega. Natijada tashqi voqealar rivoji ikkinchi planga o‘tadi, asarning asosiy badiiy qiymati esa hikoyalar mazmunida namoyon bo‘ladi.

Doston tarkibidagi hikoyalarning aksariyati hind xalq og‘zaki ijodi an‘analariga tayanadi va turli hayotiy hamda axloqiy masalalarni yoritadi. Muallif Bahromning oshiq sifatidagi qiyofasini kuchaytirishga intilgan bo‘lsa-da, Alisher Navoiy qayd etganidek, ko‘proq uni ulug‘lash va faoliyatini maqtash bilan kifoyalanadi. Shu bois qahramonning ichki kechinmalari va murakkab ruhiy olami yetarlicha chuqur ochib berilmagan.

“Sab’ai sayyor” dostoni epik janrning murakkab namunalaridan biri bo‘lib, unda syujet ko‘p qatlamli tuzilishga ega, kompozitsiya esa ramziy-falsafiy tizim asosida qurilgan. Asar o‘zining ichki tuzilishi jihatidan faqat badiiy matn emas, balki ma’naviy-falsafiy konsepsiya sifatida ham talqin qilinadi. Unda inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar, jamiyat va individ o‘rtasidagi munosabatlar keng yoritiladi.

Dostonning asosiy xususiyatlaridan biri uning kompozitsion tuzilishidir. Asar “qoliplovchi syujet” asosida qurilgan bo‘lib, markaziy voqea atrofida bir nechta mustaqil hikoyatlar joylashtirilgan. Har bir hikoyat alohida mazmunga ega bo‘lsa-da, ular umumiy g‘oyaviy tizimga xizmat qiladi. Bu esa asarni murakkab badiiy struktura sifatida ko‘rsatadi.

“Sab’ai sayyor” ishqiy-sarguzasht dostonidir. U o‘z kompozitsiyasi bilan “Xamsa” ning boshqa dostonlaridan farq qiladi. “Sab’ai sayyor” xalq og‘zaki ijodi (xususan, ertaklar) da bo‘lganidek “hikoya ichida hikoya” usulida yaratilgan. Doston Bahrom va Dilorom haqidagi qoliplovchi hikoya va shu hikoyaning kompozitsiyon silsilasiga bog‘langan yetti mustaqil hikoyadan iborat.⁴⁹

Hikoyatlar tizimi “Sab’ai sayyor”ning eng muhim badiiy qatlamlaridan biridir. Har bir hikoyat inson hayotining ma’lum bir jihatini yoritadi. Ularda muhabbat, sadoqat, adolat, xiyonat, sabr va vafodorlik kabi tushunchalar turli badiiy vaziyatlarda ifodalanadi. Bu hikoyatlar faqat voqea emas, balki axloqiy xulosa chiqarish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Nazariy jihatdan qaraganda, “Sab’ai sayyor” dostoni sintezlangan badiiy tizim sifatida talqin etiladi. Unda epik, liriko-epik va didaktik elementlar birlashgan. Bu esa asarni ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega bo‘lgan matn sifatida ko‘rsatadi. Har bir qatlam o‘ziga xos funksiyani bajaradi va umumiy g‘oyani ochib berishga xizmat qiladi.

Asarda ramziylik juda kuchli. “Yetti sayyora” tushunchasi va har bir sayyoriga mos tarzda tanlangan rang va hafta kunlari ham kosmik tartib va inson hayotining uyg‘unligini ifodalaydi. Sharq falsafasida yetti raqamiga mukammallik va ramzi sifatida qaraladi. Shu sababli doston tarkibidagi yetti hikoya ham inson ruhiy kamolotining turli bosqichlarini ifodalaydi.

Ayniqsa, ranglardagi bu xususiyatni ular orqali so‘z san’atida qadimdan shakllangan an’anaviy ramziy ma’nolar misolida kuzatish mumkin. Rang tasvirlarni kuzatar ekanmiz ular go‘yo har bir xalqning an’anasini, tarixini ildizini berayotganday ramziy ma’nolarni beradi va bu to‘g‘ri hukmhamdir. Ranglar nafaqat bir xalqning simvol sifatida balki lirik qahramonning kechinmalari, histuyg‘ularini ifodalashga xizmat qiladi. ranglarni simvol, inson psixologiyasi tarzida tushunish xalq og‘zaki ijodi shakllangan davrlardanoq boshlagan.⁵⁰

⁴⁹ N. Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi Toshkent. O‘qituchi, 1976

⁵⁰ D. Kamolova. Alisher Navoiyning Sab’ai Sayyor dostonida ranglar psixologiyasi. Andijon. 2015, 7-b

Sharq mumtoz adabiyotida Bahrom obrazi yuksak badiiy istilohga ega. U nafaqat jasur hukmdor, balki hayot sinovlari orqali kamolotga intilgan inson timsoli sifatida ham tasvirlanadi. Bahrom haqidagi rivoyatlar va dostonlar asrlar davomida ijodkorlar e’tiborini tortib kelgan. Ayniqsa, uning obrazi Sharq adabiyotining yirik namoyandalari tomonidan badiiy jihatdan yuksak darajada talqin etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Tohirov. Temuriylar davrida xamsanavislik. Toshkent: Tamaddun, 2021.
2. Hasanov S. Xamsa. Toshkent: G‘afur G‘ulom.
3. N. Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi Toshkent. O‘qituchi, 1976.
4. Kamolova. Alisher Navoiyning Sab’ai Sayyor dostonida ranglar psixologiyasi. Andijon. 2015,